

## MAKTABGACHA YOSHDA O‘YIN FAOLIYATINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nilufar Abduvalieva- JDPU Umumiyl  
psixologiya kafedra stajyor  
o‘qituvchisi

Zilola Haydarova Pedagogika va psixologiya  
yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o‘yin faoliyatining ahamiyati, o‘yin faoliyatining yuzaga kelishida zarur bo‘lgan sharoitlar, syujetli rolli o‘yinlarning bolalar harakatning o‘sishidagi ahamiyati haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘yin, bola, syujetli rolli o‘yin, faoliyat, aqliy rivojlanish, maktabgacha yosh, harakatli o‘yinlar.

O‘yin bolalarning o‘yin faoliyatları ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda bolalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, narsalar haqida fikr yuritish ham, san’at, xayol qilish, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlangandir. Mana shu jarayonlarning barchasi o‘yin faoliyatida namoyon bo‘ladi hamda bolalar talab qilayotgan darajadagi to‘laqonli hayotni ta’min eta oladi. O‘yinning bolalarni maftun etuvchi tomoni ana shunda. O‘yin faqat tashqi muhitdagi, narsa va hodisalarini bilish vositasi bo‘libgina qolmay, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va mazmunli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birlikda ularning individual fazilatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o‘yin maktabgacha ta’lim-tarbiya ishlari orasida eng asosiysi hisoblanib, markaziy o‘rinda turadi. Demak, maktabgacha yoshdagi ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil qila bilishga bog‘liqdir.

Bolaning haddan tashqari o‘yinga berilib ketishini real voqelikdan chetga chiqib ketish deb qaramaslik kerak. Bola voqelikni, ya’ni o‘zi yashab turgan muhitni va undagi turli-tuman narsa hamda hodisalarini juda sevadi. Bola o‘zining voqelikka bo‘lgan cheksiz muhabbatini va undagi narsa hamda hodisalarini bilishga bo‘lgan intilishini o‘zining xilma-xil o‘yin faoliyatlarida ifoda etadi. SHuning uchun bola o‘zining turli variantdagi o‘yinlarida xayoliy muhit yaratib, voqelikni mumkin qadar to‘la va to‘g‘ri aks ettirishga intiladi.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi xilma-xil o‘yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan

N.M.Aksarinaning ta’kidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo‘lishi lozim:

- a) taasurotlar tarkib topishi;
- b) har xil ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarining muhayyoligi;
- v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarnig bolaga bevosita ta’sir ko‘satish uslubi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjuddir. Uning fikricha, o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi.

Rolli o‘yin ishtirokchilarining safi yosh ulg‘ayishiga qarab, jinsiy tofovutlarga binoan kengayib boradi:

a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhi birlashib, 3-5 daqiqa birga o‘ynay oladilar;

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o‘yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi;

v) 6-7 yoshli bolalarda ro‘lli o‘yinni guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o‘yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi (o‘yin davomida bolalar bir-birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Bog‘cha yosh davrida harakatning o‘sishida o‘yinning ta’siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki,

1. O‘yinni tashkil qilishning o‘ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi.

2. O‘yin bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini sub’ekt aynan o‘yin payti emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi.

3. O‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

SHu boisdan o‘yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o‘yinlarda ko‘proq so‘zлarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi:

a) o‘yinda bola tomonidan malum rol tanlash va ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;

b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, hatti — harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo‘ladi va oson amalga oshadi.

Chet el psixologlaridan J. Piage va Koffkaning fikricha, bolalar go‘yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, ya’ni xayollar, afsonalar dunyosida va (real) voqeiy dunyoda yashaydilar. Bolalar o‘zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqeiy dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab turadilar. Buning haqiqatdan ham shunday ekanligini ularning o‘yin jarayonida o‘z xattiharakatlariga «bunday bo‘ladi», «bunday bo‘lmaydi» deb baho berib turishlaridan ko‘rish mumkin. Ular qanchalik o‘yinga berilmasinlar, voqeiy dunyonи hech qachon unutmaydilar va unga go‘yoki andaza tariqasida zimdan qarab turadilar.

Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o‘zi o‘yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadi. Bolalar o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratadilar. Odamning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki aktiv hamda ijodiy yaratuvchan, o‘zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati, o‘yinning umumiylit xarakteriga ega bo‘lishidir. Bola o‘zining turli tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, militsionerlarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribasi va faoliyat doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba’zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni (onasini, otasini va boshqalarni) va ularning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. O‘rtal va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylit xarakteriga ega bo‘la boshlaydi. O‘yin faoliyati bolalarni individual ravishda o‘rganish imkonini beradi. Bolalarning individual xususiyatlarini xususan ularning guruhiy o‘yinlari orqali kuzatish qulaydir.

Guruhiy o‘yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «Sotuvchi - xaridor» o‘yinida bolalar sotuvchi, kassir, ishchi, xaridorlar rollariga bo‘linib o‘ynaydilar. Bolalarning mana shu kabi guruhiy o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. CHunki, guruhiy o‘yinda har bir bola o‘z rolini yaxshi bajarishga intilishi bilan birga o‘yinning umumiyl mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi.

Mazmunli rolli o‘yinlar va ularning ahamiyati. Bolalar bog‘chada asosan mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Ular o‘zlarining turli o‘yinlarida kattalarning oilaviy hayat sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, bayramlarni, muhim sanalar kabi hodisalarni qayta tiklaydilar.

Ko‘pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o‘yin faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo‘lsa, bolalar o‘yinining mazmuni ham shunchalik keng va xilma-xil bo‘ladi. Ana shuning uchun kichik bog‘cha yoshdagi bolalar o‘yinlarining mazmuni nihoyatda tor bo‘ladi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari ular o‘yinining syujetini tobora boyib, xilma-xillashib boradi.

Bir xil mazmundagi o‘yinlar kichik yoshdagi bog‘cha bolalarida ham, katta yoshdagi bog‘cha bolalarida ham uchraydi (masalan, «Ona-bola» o‘yini «Bog‘cha» o‘yini kabi). Turli yoshdagi bog‘cha bolalari o‘yinlarining nomi bir xil bo‘lsa ham, mazmuni har xil bo‘ladi. CHunki, kichik yoshdagi bolalar voqelikning ayrim tomonlarini aks ettirsalar, katta yoshdagi bolalar o‘z o‘yinlarida voqelikning boshqa tomonlarini aks ettiradilar.

Katta yoshdagi bog‘cha bolalari mazmunli o‘yinlardan tashqari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni ham juda mohirlik bilan o‘ynaydilar. Rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni aks ettiradilar. Bunday o‘yinlar amalga oshirilishi jihatidan birmuncha murakkabdir. Bunday o‘yinlarda oldin rollar taqsimlab olinadi. O‘yinda ishtirok etuvchi har bir bola rolini

ustalik bilan bajarishi kerak bo‘ladi. **Hamma** bolalar ham bunday vazifaning uddasidan chiqavermaydilar. Kichik yoshdagi ayrim bolalar tasavvur doiralari keng bo‘lmaganligi sababli o‘z rollarini hali yaxshi bajara olmaydilar. SHuning uchun rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar asosan katta yoshdagi bog‘cha bolalariga taalluqlidir.

O‘yinlar jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratiladi. Bu esa, bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, mazmunli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarga rioya qilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham jadal rivojlanadi.

Demak, bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega:

- 1) o‘yin mavzusining haddan tashqari sermazmunligi va boyligi;
- 2) bolalar o‘yin faoliyatlarida milliy tuyg‘uning aks etishi;
- 3) o‘yin jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularining namoyon bo‘lishidadir. O‘rta va katta bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari, yasagan buyumlari milliy urf-odatlar, an’analarga asoslanganligi;
- 4) bolalar o‘yini jarayonida psixik jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, his-tuyg‘u, irodasi, xarakteri va qobiliyatining namoyon bo‘lishidir.

Demak, o‘yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishlarida qudratli vositadir. Shu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhim voqealari, oilaviy turmush xodisalari, shaxslararo munosabatlarini umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bu davrdagi bolalarning o‘yin faoliyati negizida va mazmunini ular o‘z zimmasiga olgan rolning mohiyatidan kelib chiqib, o‘yining barcha qoidalari rioya qilish tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, ruhiy, aqliy taraqqiyotida asosiysi o‘yin faoliyatidir.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1.Nasiba Jumanova, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ АКТИВАЦИИ, УСКОРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 1 № 1 (2021): Zamoniyy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari

2.Jumanova, N. (2021). ПРОФИЛАКТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕФЕКТОВ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1365>

3.Jumanova, N. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОБУЖДЕНИЯ БОЛЬШОЙ ГРУППЫ ДЕТЕЙ ЛЮБОВЬ К ЛИТЕРАТУРЕ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1366>

4.Jumanova, N. (2020). АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

5.Obidova, D., & Nasiba, J. ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF HEALTH CARE INSTITUTIONS: PROSPECTS FOR THE APPLICATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE.

6. Атамуродова, Р. К., Жуманова, Н. Ш., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Взгляды учёных средневековья о душе человека. Проблемы педагогики, (8 (19)).

7.Sherboevna, N. J. (2020). THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE CULTIVATION OF CHILDREN'S SPEECH IN PRESCHOOL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

8.Jumanova, N. S., & Abduvaliyeva, N. N. M. Q. (2022). O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 625-629.

9.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).

10.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).

11.Usmonova, M. (2023). O'SMIRLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3).

12.Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.

13.Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА йўз УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(2).

14.Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА йўз УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

15.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

16.Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.

17.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном*

образовании, 4(1), 161-167. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

18.И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРНИНГ ЎРНИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(12), 186–190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>

19.Xasanova, I. A (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLISHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

20.Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 168-173. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

21.Xasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 168-173. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

22.Xasanova, I. (2024). O'QUVCHILAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA TA'LIMNING O'RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 174-180. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9561>

23.Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

24.Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARНИ RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 148-154. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

25.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 161-167. извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

26.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от  
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

- 27.Shakarboyeva. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>
- 28.Shakarboyeva, & Худойқулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>
- 29.O‘risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 30.O‘risheva, P. (2023). SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (I).
- 31.O‘risheva, P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).
- 32.Ўришева, П. (2022). РОЛЬ МУЛЬТИДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 559-562.
- 33.QIZI, O. R. P. G. A. (2022). ILK O ‘SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(1), 32-36.
- 34.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>
- 35.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>
- 36.Iroda, X. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF LEADERSHIP. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 16-18.
- 37.Munira Usmonova, OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA - ONA MUNOSABATLARI , Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*: № I (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ